



ALLA JANRI BO'YICHA O'ZBEK VA TURK BESHIK QO'SHIQLARINING QIYOSIY TAHLILI

Asadov Asadbek Murodjon o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Shukurova Anora Fozil qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17547859>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

beshik qo'shiqlari, alla janri, folklor, folklorshunoslik, qiyosiy-tahlil, ijro usuli, etnografiya, frazeologiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek va turk xalqlari beshik qo'shiqlari (alla janri) tarixiy rivoji, ijro usullari, mavzu-mohiyati va frazeologik-tahliliy jihatlarini o'rganiladi. Maqolada beshik qo'shiqlarining turlari, ularning bolani uxlatishdagi o'rni, xalq an'analari va turk xalqlari bilan qiyosiy ta'riflari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va turk allalarining qiyosiy-tarixiy tipologiyasi, ijro xususiyatlari va folklorshunoslik nuqtai nazaridan taqdim etilgan ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Beshik qo'shiqlari, ya'ni "alla" janri, xalqimizning milliy madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, asrlar davomida bolani uxlatish, uni tinchlantirish va tarbiyalash vositasi sifatida shakllangan. Allalar nafaqat o'zbek xalqining, balki boshqa turk xalqlari folklorida ham keng tarqalgan bo'lib, ularning shakllanishi, ijro uslubi va mavzu-mohiyati ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortgan. Ilmiy manbalarda allaning kelib chiqishi, ma'nosi va janr xususiyatlari haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar uni arabcha "Alloh" so'zidan, boshqalar esa o'zbekcha "aldamoq" so'zidan kelib chiqqan deb talqin qiladilar. Ammo allaning asosiy vazifasi bolani uxlatish va tinchlantirish bo'lib, uning kompozitsion va ijro uslublari asrlar davomida shakllangan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u o'zbek va turk allalarining tarixiy rivojlanishi, ijro xususiyatlari, mavzu va tasnifi bo'yicha taqqoslashni amalga oshiradi. Tadqiqotning maqsadi — o'zbek va turk xalq allalarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash, ularni ijro va mavzu-mohiyat jihatidan taqqoslash orqali ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishdir.

"Alla" istilohining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba'zilar uni arabcha "Alloh" so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli, deb hisoblasa, boshqalar o'zbekcha "aldamoq" so'zidan kelib chiqqanini ta'kidlashadi va shunga ko'ra, u bolani aldab-avrab uxlatish ma'nosini anglatadi, deyishga urinadi. Biroq, bu izohlarning haqiqatga mos kelmasligi o'z-o'zidan ayon. L.Z. Budagov "chig'atoycha"da "allala" so'zi boshning orqasi, ya'ni "ensa"ni anglatishini qayd etgan. Haqiqatan ham chaqaloq chalqanchasiga yotganda, boshining orqasi yostiqa bosilib, shunday holda uxlaydi. Chaqaloq beshikka yoki belanchakka faqat boshining orqasi—ya'ni allalasi bilan cho'zilib uxlaydi. Shu nuqtai nazardan, allaning asosiy vazifasi — bolaga uyqu chaqirish bilan bog'liq.

"Allala" shakli esa "alla, alla-yo, alla-yo alla" kabi variantlarda ishlatiladi va u uyquga chorlovchi xususiyatga ega. Chaqaloq yoshini to'ldirishi jarayonida bu so'zdagi tovushlarni

idrok etadi va uxlab qolish paytida “alla” so’zini lug’aviy jihatdan “bosh orqasi” va “uxlamoq” ma’nolarida tushuna boshlaydi. Shu tarzda, istilohiy ma’nosiga ko’ra, allaning asosiy vazifasi bolani uxlatish va uyquga chaqirishga qaratilgan silsilaviy qo’shiq turi sifatida shakllangan. Abu Ali Ibn Sino ham allaning ushbu xususiyatini ming yil ilgari qayd etgan: “... bolaning mijozini kuchaytirish uchun unga ikki narsani qo’llash kerak: biri — bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi — uni uxlatish uchun aytish odat bo’lib qolgan musiqa va allalashdir”.¹ Ibn Sino zamonidayoq allalar nafaqat O’rta Osiyoda, balki O’rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlar orasida muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning an’anaviy xususiyatlarini saqlagan holda, mustaqil janr sifatida keng tarqalganligi va turkiy xalqlar orasida “balu-balu” nomi bilan tanilganligi “Devonu lug’otit turk”da qayd etilgan. Allalar odatda bolalarning emizikli davrida — ya’ni uch yoshgacha bo’lgan davrda aytiladi. Shu sababli ularning bolalarning shu yosh davri bilan bog’liqligi qat’iy bo’lib, beshik qo’shig’i sifatida shakllanishiga imkon yaratgan.

Alla nafaqat bizda balki butun turk dunyosida mavjud janrdir. Shu jihatdan bugunga qadar bir qator tasniflar amalga oshirilgan bo’lib, K.Imomov, B.Sarimsoqov, T.Mirzayev, O.Safarovlarning “O’zbek xalq poetik ijodi”² nomli asarlarida o’zbek allalari kompozitsion jihatdan 2 yirik turga ajratadilar. Bungacha sovet davrida yozilgan allalar, tarixiy allalar kabi turlarga bo’lingan, ammo eng muqobili sifatida aynan shu tasnif olingan bo’lib, bular:

Voqeaband allalar. Bunday allalar uncha ko’p emas, ularga allachilikning eng takomillashgan namunasi sifatida qarash lozim. Bunday allalar yagona sujetga bo’ysungan, barcha bandlardagi poetik muddao bir silsilada markazlashgan, “hayotiy voqealarning biror epizodi natijasida vujudga kelgan kayfiyatlar tasvirini beradi”. Bunday allalarda ham “kompozitsiya g’oyat puxta bo’ladi: ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim singari komponentlar bo’ladi”.

Past-pastgina tepadan,
Toydim-tushdim-o, alla.
Qo’limga qaychi olib-o,
Senga qo’zichog’im-o,
Chopon bichdim-o, alla,
Jonim bolam-o, alla.
Yenglari tor kelmasin, deb,
Qo’lingga qarab-o, alla.
Chopon bichgan qo’limni-yo,
Mening taylog’im-o, alla,
Oyi bordir-o, alla,
Jonim bolam-o, alla.

Allada tasvirlangan vaziyat ko’rinarlidir: ona chopon bichayotir. Chopon bolasiga atalgan. Bola beshikda yotibdi, lekin hali uxlamagan. Onaning ishlashiga xalaqit bermoqda. Ona esa, chopon bichayotganini hisobga olib, bolaning uxlashi kerakligini xohlab, shu istagini allaning monoton ohangida kuylamoqda. Ona bir vaziyatda ikki ishni — chopon bichishni va bolasini uxlatishni — amalga oshirishga intilmoqda.

¹ <https://soglom.uz/archives/660?imlo=1>

² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblari/komiljon-imomov-o-zbek-xalq-nasri-poetikasi>

Parokanda allalar. Bu turdagi allalar o'zbek onalari repertuarida ko'proq uchraydi. Ularning muhim xususiyati shundaki, ular yagona sujet asosida qurilmagan. M. Alaviya³ "bir-biriga yaqin bir qancha to'rtliklar" deb aytganida, ulardagi shu xususiyatni — mavzu va sujetning parokandaligini ko'rishga intilganga o'xshaydi. Parokanda allalarda har bir band o'zicha mustaqil va to'laqonli mazmunga ega. Biroq bunday mustaqillik faqat tashqi belgida seziladi, chunki mazmun mantiqi baribir bolaga qaratilgan bo'lib, bandlarni yagona bir ipga bog'laydi. Bu bog'lanishni vazn, qofiya, radif va hatto naqorat kabi badiiy-tasviriy komponentlar kuchaytiradi. Parokanda allaning yuzaga kelishida asosan uni kuylayotgan onaning kayfiyati beqarorligi, o'z sarguzashtlari, hayotiy tashvishlari — omadsizliklari, o'kinchlari, armonlari — muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, allada mazmun va ohang hayotiy tajriba bilan chambarchas bog'langan holda ifodalanadi.

Chelebi o'g'lu allalarni mazmuniga ko'ra shunday ajratadi:

1. Diniy, muqaddas va intellektual xarakterdagi allalar;
2. Rivoyat va marsiya kabi allalari;
3. Istak va xohish xarakteridagi allalar;
4. Sevgi va g'amxo'rlik ifodalangan allalar;
5. Shikoyat va g'am-g'ussa ifodalangan allalar;
6. Ayriqliq va yurt sog'inchini ifodalovchi allalar;
7. Va'da xarakteridagi allalar;
8. Qo'rquvchi va qo'rqituvchi allalar.

Ko'rib turganimizdek, turk allalari har bir holatga mos ravishda tasniflangan. Ya'ni, shikoyat, g'am-g'ussa ishtirok etgan allalar yoki bo'lmasa, ayriqliq, yurt sog'inchini ifodalovchi allalar, qo'rqituvchi alla turlari o'zbek allalarida mazmunan ham mavjud bo'lishiga qaramay, bu kabi tizimli tasniflar amalga oshirilmagan. O'zbek allalarida dastlab bolani beshik, belanchak va atrofdagi odamlar bilan tanishtirish ruhidagi allalar mavjud bo'lgan. Keyinchalik, bolaning taqdiri va kelajagi haqidagi shirin orzu-niyatlarga burkangan ruhdagi allalar paydo bo'lgan. Yana bir turi bor: bunda ona tamoman bola, beshik va hamma narsani unutadi; alla mazmuni faqatgina onaning g'am tashvishi va chekkan iztiroblari bilan davom etadi.

Bundan tashqari, o'zbek allalariga nafaqat o'zbek qardosh xalqlar beshik qo'shiqlari, balki davr yangilanishi, avlodlar almashinuvi jarayonida sodir bo'lgan kashfiyot va ixtirolar ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Yuriy Gagarin ismi, mashina samolyotlar nomlari qatnashgan alla-yu aytimlar qadimdan kuylanib kelmaydi, albatta. Bunday yangilanishlar XX asrning ikkinchi yarmiga xosdir. Albatta bu o'zgarishlar bolalar, ularning fikrlash dunyosi-yu, qabul qilayotgan axborotlarini ham hisobga olib yaratmoq kerak.

Turk onalari ham, o'zbek onalari ham bolani tug'ilganidan boshlab, beshik davrida uni uxlatish yoki yig'latganda ovutish maqsadida ming yillik an'ana hisoblanmish allalardan

³ Muzayyana Alaviya (1909.20.4. Toshkent viloyati Piskent tumani — 1988.3.3, Toshkent) — shoira, folklorshunos. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1968). Samarqand pedbilim yurti (1928—30), Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti (1934—38)da o'qigan. Toshkent shahar maktablarida o'qituvchi (1930—40), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida kichik (1940—59), katta ilmiy xodim (1959—88). M.A.ning "Bugungi men" nomli birinchi she'ri 1927-yil "Maorif va o'qituvchi" jur.da bosilgan. Xalq ijodkorlaridan ko'plab folklor asarlarini yozib olgan va nashrga tay-yorlagan ("Oq olma, qizil olma", 1972; "Sovet davri qo'shiqlari", 1983 to'plamlari; "Intizor", 1964, "Dalli", 1972 dostonlari). O'zbek xalq qo'shiqlarining badiiy-estetik xususiyatlari, marosim folklori bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. "Odamiylik" (1964), "Dil nidosi" (1967), "Yon qo'shnim, jon qo'shnim" (1974) kabi risolalari odob-axloq masalalariga bag'ishlangan. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1973).

foydalanadilar. Ammo bu jarayonda bir necha farqli, bir-birini to'ldiruvchi jihatlar mavjud bo'lib, ularga loyiha ishida alohida to'xtalish lozim. Bilamizki, o'zbek oilalarida farzand tug'ilishidan voyaga yetgunicha bir qadar urf-odatlar va an'analar mavjud. Masalan, azon aytish, go'dak ilk marta yurganda yoki yugurganda, tishi chiqqanda, sochini olganda va boshqa holatlarda aytiladigan aytimlar va qilinadigan amallar qardosh xalqlar vakillari o'rtasida ham amalga oshiriladi. Xalqimizda go'dakni beshikka belash marosimida "Beshikning egasi keldi, babolari po'sh-po'sh" deyiladi. Ilk marta bolani beshikka belovchi ayol bolani chap yoni bilan yotqizib, "Bunaqasi belaymi?" deb atrofdagilardan so'raydi. Atrafdagilar "Yo'q-yo'q" deb javob berishadi. Keyin o'ng tomoni bilan yotqizib yana so'raydi, yana "Yo'q-yo'q" deya javob berishadi. Nihoyat, to'g'ri yotqizib so'raganda "Ha-ha" deb javob qaytariladi. Aynan shu aytinga o'xshash matn Turk xalqi og'zaki ijodida ham mavjud:

"Bu benim canım, bir canım,
Boynumdaki mercanım,
Allah verdi sevsin diye,
Altın beşiğe sarsın diye,
-Böyle mi bağliyoruz?
-Hayır, hayır!
-Böyle mi bağliyoruz?
-Evet, evet!
Kaç kaç dedesi,
Geldi sahibi,
Baba-annen konuşsa,
Bağlırsa yine korkma,
Ablaların, ağabeylerin
Bağlırsa yine korkma!
Alaca köpek havlırsa
Korkma!
Tekir kedi mırıldarsa
Korkma!
Eşek anırsa,
Yine korkma!
Biri yüksek ses çıkarsa,
Seslenirse/ çağlırsa
Yine korkma!"

Turk madaniyati va mifologiyasida ayrim raqamlarga alohida ahamiyat beriladi. "Bir, uch, besh, yetti, to'qqiz, qirq" kabi raqamlarning har biri turk madaniyatida keng qo'llaniladi va muqaddas sanaladi. Bu raqamlar e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, turk mifologiyasida ham, islom e'tiqodida ham muhim hisoblanadi. O'zbek adabiyotida ham bu sonlar muhim o'rin egallagan. Chaqaloq tug'ilgandan so'ng beshinchi, ettinchi, to'qqizinchi va qirquinchi kunlarda turli urf-odatlar kuzatiladi. Ya'ni chaqaloq 3-,5-,9-kunlari har kungidagidan ko'proq avaylanadi, e'tibor beriladi. Biz bu an'analarni marosimlar deb atashimiz mumkin.

"Beshdan o'tdi, toshdan o'tdi,

Eski tegirmondan o'tdi,
Sandal sahrodan o'tdi,
Onasining ko'z munchoq,
Otasining tasallisi.
Bu chaqaloq beshdan oshgan,
Bu chaqaloq toshdan o'tdi,
Bu chaqaloq endi o'lmaydi,
Onasining pichog'i, otasining qo'sh pichog'i"

Bu kabi aytimlar har ikki xalqda uchraydi. Ammo bugungi kunda ko'plab chaqaloqlar tug'ruqxonada bo'lgani uchun bu marosim biroz unutilgan. Bolaga birinchi kiyim kiydirilganda "Bolam yuzga yetsin, kiyimi kuzga yetsin" kabi aytimlar mavjud bo'lib, ularning alternativ variantlari turk xalq bolalar folklorida ham uchraydi. Ko'rib turganimizdek, har ikki xalqning aytim-u allalari ijro tartibi deyarli bir xil. Urf-odat va an'analar ham, ba'zi farqliklarga qaramay, asosan bir xil. Axir qardosh xalqlar madaniyati, etnografiyasi va folklori yillar davomida birga rivojlangan, takomillashgan va ularning genezisi aynan bir xil bo'lgan.

Xulosa: O'zbek va turk xalqlari beshik qo'shiqlari — "alla" janri xalq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, asrlar davomida bolani uxlatish, tinchlantirish va tarbiyalash vositasi sifatida shakllangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, allalar nafaqat ijro uslubi, balki mavzu-mohiyati jihatidan ham boy va xilma-xildir.

O'zbek allalari kompozitsion jihatdan voqeaband va parokanda turlarga ajratilgan bo'lsa, turk xalqlarida allalar mavzu va vaziyatga ko'ra yanada tizimli tasniflangan. Har ikki xalqda allaning asosiy vazifasi — bolani uyquga chaqirish va uni tinchlantirish bo'lib, bunda ona kayfiyati, monoton ohang va badiiy-tasviriy elementlar muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, o'zbek va turk allalari xalq ijodining boy manbayi sifatida nafaqat bolani tarbiyalashda, balki madaniy merosni o'rganish va qiyosiy-tahliliy tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. -O'.: "Fan", 2009.
2. Jo'rayev M. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDMI, 2008.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -O'.: "Musiqa" nashriyoti, 2010.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -O'.: "Mumtoz so'z", 2010
5. Geleneksel Türk Müziğinde Ninni Olgusunun Yeri ve Ninnilerin Müziksel Çözümlemesi — Burcu Yilmazoğlu. Ankara: Hacettepe Universitesi; 2020.
6. Problems in the Study and Classification of Turkish Lullabies — Shamsiya Mamajonovna Egamberdiyeva. International Journal of Artificial Intelligence, 2024.
7. Millî Kültür İnşası ve Dil Bilinci Kazandırma Aracı Olarak Kosova Türk Edebiyatında Ninni — Raşit Koç. Yüzüncü Yıl Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, Issue 59, 2023